

## "BOBURNOMADA QÓLLANILGAN ASL TURKIYCHA SÓZLAR"TAHLILI

*Norhamidova Elnora*

*Termiz davlat universiteti Ózbek filologiyasi fakulteti 3-bosqich talabasi*

### **Annotatsiya**

Ushbu maqolada Shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Bobur qalamiga mansub Boburnoma asaridagi asl,sof turkiycha sózlar tahlili yoritiladi va asarlaridagi mavzular ochib beriladi,sózlarning talqini va tabdili haqida fikr mulohazalar yoritiladi.

**Kalit sózlar:** Turkiycha sózlar, ózlashma sózlar, asar talqini, ma'noviy sóz qóllanishlar, sohaviy birliklar, tahlil, tamoyil

### **Kirish**

Boburnoma asari jahon adabiyoti va manbashunosligidagi muhim va noyob yodgorlik; ózbek adabiyotida dastlabki nasriy memuar va tarixiy-ilmiy asardir.,,Boburnoma“ ózida bayon qilingan voqealar jarayoniga ko‘ra 3 qismga: Boburning Movarounnahr (1494—1504), Afg‘oniston (1504—1524) va Hindiston (1524—1530)dagi hukmdorlik davriga bo‘linadi. Birinchi qismda Boburning otasi — temuriylarning Farg‘ona ulusi hokimi Umarshayx Mirzo (1461—1494) xususida hamda Boburning Farg‘ona taxtiga o‘tirishi (1494-yil iyun), ammo Temuriylar davlatida avj olgan taxt uchun kurash oqibatida o‘z ulusidan mahrum bo‘lishi (15-asr 90- yillari), Samarqand uchun Shayboniyxonga qarshi olib borgan jangu jadallari (1497—1501)ning behuda ketishi va nihoyat, toju taxtdan butunlay ajrab, Hisor tog‘lari orqali taxminan 250 navkar bilan Afg‘onistonga yuz tutishi (1504) haqidagi voqealar batafsil zikr qilingan. Ikkinchi qismda Boburning Kobulni zabt etgani, so‘ng u yerda mustaqil davlat tuzgani (1508), Eron shohi Ismoil Safaviyning harbiy yordami bilanSamarqandni yana ishg‘ol qilgani (1511), lekin shayboniylar (Ubaydulla Sulton, Muhammad Temur Sulton va Jonibek Sulton)dan yengilib (1512), Kobulga qaytgani, keyin esa Hindistonni zabt etishga hozirlik ko‘ra boshlagani xususidagi voqealar bayon etilgan. Uchinchi qism esa Boburning Dehli sultoni Ibrohim Lo‘diyini mag‘lub etib (qarang Panipat janglari), Shim. Hindistonni bosib olgani (1526) va Boburiylar davlatini barpo qilgani haqidagi ma‘lumotlardan iborat.,,Boburnomada“da keltirilgan barcha ma‘lumotlar, xususan Farg‘ona, Toshkent, Samarqand, Hisor, Chag‘oniyon va Shim. Afg‘onistonning 15-asr 80—90- yillari va 16-asr 1choragidagi siyosiy ahvoliga doyr xabarlar o‘zining batafsilligi bilan shu xususdagi boshqa adabiyotlardan tubdan farq qiladi. Shuningdek, asar muallifning muayyan tarixiy voqea haqida hamda o‘zaro dushmanlik qilgan temuriylar — Umarshayx, Sulton Ahmad, Sulton Mahmud, Boysung‘ur Mirzo, Sulton Husayn va boshqalarning xulqatvori, tabiati xususida

bildirgan fikrmulohazalari bilan ham ahamiyatlidir. Asarda, ijtimoiytabiiy fanlar, tarix, falsafa, fiqh, din ta'limoti, tilshunoslik, jug'rofiya, tabiatshunoslik, ma'danshunoslik, dehqonchilik, bog'dorchilik va boshqalarga oid aniq va hanuzgacha o'z tarixiy va ilmiy ahamiyatini yo'qotmagan ma'lumotlar, ilmiy asoslangan xulosalar keltirilgan. Asarda bevosita Boburning o'zi lashkarboshi sifatida qatnashgan bir necha kattakichik jang manzaralari mahorat bilan berilgan. O'sha davrdagi qo'shin tuzilishi, urush olib borish, jang usullari, qamal holatlari, qurolyarog' turlari, qurg'onbuzar qurilmalar bilan bir qatorda asarda ko'plab harbiyma'muriyistiloxlar (tuman, ulus, ko'kaltosh, eshikog'a, axtachi, tarxon, shig'ovul, sharbatchi (sharbatdor), mubashshir, tug'chi, miroxur, rikobdor, dorug'a, murchil, manjaniq, o'ron va boshqalar) ham uchraydi. Shuningdek, „B.“da temuriylar qo'shinining tuzilishi, harbiy san'ati va boshqa haqida ham noyob ma'lumotlar bor. Bundan tashqari, Movarounnahr, Afg'oniston, Xuroson va Hindiston o'tmishi va zamonaviy holati, xalqlari, qabilalari, ularning tili, madaniyati, kasbhunari, urfodatleri, rasmrusumlari, an'anaviy tadbirmarosimlari, shuningdek o'sha davr jamiyatiga xos ijtimoiy tabaqalarga tegishli ma'lumotlar bayon etiladi. Ayniqsa Farg'ona, Andijon, Samarqand, Kobul, Hirot, Agra kabi yirik shaharviloyatlarning jug'rofiyma'muriy tuzilishi, madaniy hayoti, tumanlari, aholisi, qishloq xo'jaligi, daryo va suv havzalari, cho'ladirlari, tog'sahrolari, bog'u rog'lari, tabiati, iqlimi, hayvonot va o'simliklar dunyosi, tabiiy boyliklari haqida mufassal ma'lumotlar beriladi. Xususan 15—16-asrlarda Turkiston viloyatida yashagan qora qo'ylik (qo'yunluk) qabilasining hamda Movarounnahrdagi turkmo'g'ul qabilalarining urfodatleri, harbiy mahoratlari haqidagi ma'lumotlar, ayniqsa ilmiy jihatdan g'oyatda qimmatli bo'lib, ular o'zbek, qozoq, qirg'iz va boshqa turkiyzabon xalqlar etnik tarixini o'rganuvchilar uchun muhim ahamiyatga egadir. „Boburnoma“ da Farg'ona, Samarqand shaharlari va shu nomdagi viloyatlar, Ohangaron vodiysi, O'ratepa va uning atrofi, Mascho, Hisor, Chag'oniyon, Badaxshon, Kobul viloyati va boshqa joylar geografik jihatdan g'oyatda qiziqarli tavsif qilingan bo'lib, muallif o'zi yurgan yo'llar, o'zi bo'lgan shahar va qishloqlarni g'oyat darajada aniq tasvirlagan.

### Asosiy qism

Boburnoma» asari orqali Zahiriddin Muhammad Boburni onomastik olim sifatida ham bilamiz. Nomlar, ularning turlari, nomlanish sabablari bilan shug'ullanuvchi tilshunoslik bo'limiga onomastika deyiladi. Atoqli otlar nomlanuvchi obyektiga ko'ra bir nechta guruhlariga bo'linadi: 1. Shaxs va ularga qo'yilgan nomlar antroponimlar: Ahmad, Karim va boshqalar. 2. Geografik obyektlar va ularning nomlari toponimlar: Shirmonbuloq, Qorako'l, Qarshi kabi. 3. Hayvon nomlari va ularga atab qo'yilgan nomlar zoonimlar: To'rtko'z, o'ribosar. Asarni o'qib borar ekanmiz, bularning barchasini uchratamiz, shaxslar, o'rin-joylarning nafaqat nomlarini, balki barchasining o'ziga xos xususiyatlari bilan tanishamiz, ularni o'rganamiz. Endi asarda berilgan toponim turlari bilantanishib chiqsak: Shahar va qishloq nomlari: Qoshg'ar,



Samarqand, Badaxshon, Xo'jand, Fanokat, Shohruhiya, Turkiston, Andijon, Kesh, O'sh, Marg'inon, Isfara, So'x, Xushyor, Voruhyana, Toshkent, Xo'jand, Kobul, Konibodom, Axsikat, Koson, O'ratepa, Qubo, Hisor, Termiz, Balx, Astrobod, Buxoro, Zomin, Kandahor, Xorazm, Kesh, Itmak, Pop, O'ratepa, O'zgan, Saripul, Qorabog', G'azna, Odnapur, Ningnahor, Lag'monot, Alishang, Mil, Kunar, Lamata, Nurigul, Bajavr, Chag'onsaroy, Nijrov, G'urband, Mitakacha va shu kabilar Mamlakat nomlari: Afg'oniston, Hindiston, Xitoy, Xuroson, Mo'g'uliston kabi mamlakat nomlarini uchramiz. Tog' nomlari: Olatog', Saretog', Olg'tog'i, Metar Sulaimon tog'i, Murg'on tog'i, Shovdor tog'i, Shunqorxonatog'i, Kirmosh tog'i, Xoja Ismoil tog'i singarilar. Daryolar nomi: Gang daryosi, Amu daryosi, Oqsuv daryosi, Jun daryosi, Saygun daryosi, Saru daryosi, Satluj daryosi, Ilamish daryostoponimikai, Sind daryosi, Daryi Xo'r kabilar. Bu tadqiqotlar shuni kórsatadiki Bobur fanining asoschisi deb hisoblasak bóladí. Xalqimizda afsona va rivoyatlar bir talay, ular asosida esa hayotiy haqiqatlar yotadi. «haqiqatdan tug'ilar ba'zan afsona»<sup>141</sup>. «Boburnoma» da keltirilishicha, ba'zi joy nomlarining kelib chiqishi ham shunday yaratilma asosida shakllangan ekan. Bobur Mirzo Hodarvesh qishlog'i nomining kelib chiqishini quyidagicha izohlaydi. "Derlarkim, bir necha darvesh bu bodiyada tund elga yo'luqub, bir - birini topolmay "Ho darvesh", "Ho darvesh" deya - deya tamom halok bo'lurlar, andin beri bu bodiyani "Hodarvesh" derlar"—<sup>1</sup> Hodarvesh hozirgi Qayroqqumning qadimgi nomidir. "Boburnoma" da qóllanilgan yana bir jihatlardan biri shundaki, bu undagi asl turkiycha sózlar talqinidir. Bunga misol tariqasida asardagi uzoq muddat ma'nosini anglatuvchi muddati madid [5.31] so'z birikmasidagi muddat so'zi o'zbek tilida faol qo'llaniladi, biroq, madid so'zining ma'nosini bilish uchun lug'atga murojaat qilish lozim bo'ladi: Xo'jand ham muddati madid edikim, Umarshayx mirzo devonig'a taalluq edi, bu fataratga ul sarkorda futur bo'lg'on uchun Sulton Ahmad mirzog'a boqib erdi. *aimmai islom* [5.43] – islom imomlari; *aimmai kalom* [5.44] – kalom imomlari. Mazkur birikmalardagi *aimma* so'zi hozirgi o'zbek adabiy tilida faol iste'molda bo'lgan imom so'zining siniq ko'plik formasidir. *Doxili mamoliki maxsura forsiy izofiy zanjirli birikmasidagi doxil* so'zi hozirgi o'zbek adabiy tilida kirmoq, bir narsaning ichiga kirgan bo'lmoq; kirim hisobiga o'tmoq, yozilmoq, kelmoq; daxldor, tegishli bo'lmoq ma'nolarini anglatadi. *mamoliki maxsura-qurshab olingan mamlakatlar* ma'nosini anglatuvchi birikmadagi *maxsura* so'zi hozirgi o'zbek adabiy tilida qo'llanilmaydi, ma'nosi kitobxonga tushunarli emas, arab tilida esa "Boburnoma" da ifodalab kelgan ma'no—*qurshab olingan* ma'nosini anglatadi. *Mamolik* so'zi ham hozirgi o'zbek adabiy tilida qo'llanilmaydi, biroq, mazkur so'zning o'zakdoshi *mamlakat* so'zi hozirgi o'zbek adabiy tilida faol iste'molda. Asarda qo'llanilgan ayrim forsiy izofiy birikmalartarkibidagi har ikkala so'z hozirgi o'zbek adabiy tilida qo'llaniladi, biroq birikma anglatgan ma'no hozirgi o'zbek tilida uchramaydi. Masalan, *kofiri ne'mat* [5.63] so'z birikmasidagi *kofirso'zi*

hozirgi o'zbek tilida arab tilidagi kabi xudosiz ma'nosini anglatadi, ne'mat so'zi esa tabiat in'om etgan yegulik narsalar, noz-ne'matlar ma'nosini anglatadi. Arab tilida *كافر بالنعمة* kafir binni'mati birikmasi noshukur ma'nosini anglatadi va asardagi kofiri

ne'mat forsiy izofiy birikmasi anglatgan ma'noga to'liq mos keladi: Ushbu yil, Xisravshoh Balx ustig'a cherik borur xayoli bila Boysung'ur mirzoni tilab, Qunduzg'a kelturub, Balx ustiga otlandi. Uyoqcha yetgan chog'da Xisravshoh badbaxt kofiri ne'mat saltanat dag'dag'asi bilakim, saltanat andog' nokas, behunarlarg'a ne nav' yetgay[5.63]. Hozirgi o'zbek adabiy tilida kofiri ne'mat so'z birikmasi iste'moldan chiqib ketgan va noshukur ma'nosida qo'llanilmaydi. Birikma tarkibidagi so'zlardan biri hozirgi o'zbek adabiy tilida qo'llanilmaydi, iste'moldan chiqib ketgan, ikkinchisi faol qo'llaniladi, "Boburnoma"dagi hiddati tab' (*حَدَّتْ طَبَعٌ*) (izofiy birikmasi sezgir, ziyrak, ta'bi nozik, qiziqqon ma'nolarini anglatib kelgan. Ta'b so'zi o'zbek tilining izohli lug'atida kishining xarakterida, uning kishilarga, narsalarga munosabatida namoyon bo'ladigan ichki tabiati, mijozi; xohish, xush, rag'bat, ixtiyor ma'nolarini anglatadi deb ko'rsatilib o'tilgan. Ushbu so'z hozirgi o'zbek adabiy tilida asliyatdagiga to'la mos keladi. Biroq, birikma tarkibidagi hiddat so'zi iste'moldan chiqib ketgan va hozirgi o'zbek adabiy tilida qo'llanilmaydi: Va Shayx Zayn sadrkim, Zayniddin Xavofiyni nabirasi erdi, hiddati tab'i bor erdi, nazm va inshodin saliqalig' va Humoyun podshoh zamonida umarolig' ham topib erdi[5.357] Asardagi hakimi hoziq forsiy izofiy birikmasi eng tajribali, mahoratli, mohir tabib ma'nosini anglatadi. Asarda qo'llanilgan ayrim arabiy izofiy birikmalar tarkibidagi har ikkala so'z hozirgi o'zbek adabiy tilida qo'llaniladi, biroq birikma anglatgan ma'no hozirgi o'zbek tilida uchramaydi. Masalan, asarda tarkibida uy, saroy ma'nosini anglatuvchi *دار* dor so'zi mavjud bo'lgan bir qator izofiy birikmalar uchraydiki, birikma tarkibidagi har ikkala so'z hozirgi o'zbek adabiy tilida qo'llaniladi.

### Xulosa

Xulosa qilib aytganda, asarda kóplab sózlarni uchratishimiz mumkin va u sózlar tahlili hozirgi muqobillari ham mavjud hisoblanib, arabiy-forsiy izofalar bn birgalikda tushuntiriladi maqoladagi asl turkiycha sózlar anchagina va ularni toponimika misolida ham kórishimiz mumkin.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Абдуллаев. Ф. Сўзлар ўзаро қандай боғланади. Т.: Фан, 1974.
2. Абдуллаев. Ф, Эшондадаев. Д. Ўзбек тилида тожикча изофали бирикмалар // Ўзбек тили ва адабиёти. Т.: 1973, 1-сон, - Б. 40-45.
3. Юсупов. М. Типы изафетных конструкций в прозаических произведениях Алишера Навои. АКД. Т.:1984.

4. Бегматов. Э. Ономастик сўз яшаш масалаларига доир // Ўзбек тили ва адабиёти. Т.: 1965, 3-сон, - Б. 53-55.
5. Абдуллаев. Ф. Киши отларини қискартириш усуллари // Ўзбек тили ва адабиёти. Т.: 1960, 3-сон, - Б. 34-39.

